

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**ISOMOV ELDOR ERXONOVICH**

**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA ARTISHOK  
(*CYNARA SCOLYMUS* L.) NAVLARINING BIOEKOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Isomov Eldor Erxonovich**

Buxoro viloyati sharoitida artishok (*Cynara scolymus* L.) navlarining bioekologik xususiyatlari ..... 3

**Исомов Элдор Эрхонович**

Биоэкологические особенности сортов артишока (*Cynara scolymus* L.) в условиях Бухарской области ..... 21

**Isomov Eldor Erkhonovich**

Bioecological features of artichoke varieties (*Cynara scolymus* L.) in the condition of Bukhara region ..... 39

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 42

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**ISOMOV ELDOR ERXONOVICH**

**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA ARTISHOK  
(*CYNARA SCOLYMUS* L.) NAVLARINING BIOEKOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/B910 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi www.samdu.uz manziliga hamda «Ziyonet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz.) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nomozova Zebunniso Baxronovna**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xaydarov Xislat Kudratovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Duschanova Guljan Madrimbayevna**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 10-avgust soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy, Samarqand davlat universiteti Biologiya fakulteti binosi, 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (Ro‘yxatga olingan raqami № 98). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy, Axborot-resurs markazi. Tel.: (+99866) 239-11-51)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 27-iyul kuni tarqatildi.  
(2023-yil 27-iyuldagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).

**T.F.Rajabov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d.

**M.S.Kuziyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi. b.f.f.d. (PhD)., dotsent

**X.K.Xaydarov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolash hamda ularni oldini olishda qo'llaniladigan fitopreparatlarga qo'shiladigan dorivor o'simliklarni yetishtirishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Keyingi yillarda ushbu xususiyatga ega dorivor o'simliklarni qishloq xo'jaligida kam foydalaniladigan yoki ekstremal sharoitlarda ham xom-ashyosini tayyorlash orqali farmasevtika sohasini rivojlantirish zaruriyatini belgilab bermoqda. Bu o'rinda, floramizga xos bo'lmagan dorivor va boshqa foydali o'simlik turlarini sho'rlangan hamda ekstremal sharoitlarga bog'liq holda introduksiyalash, bioekologik moslanish mexanizmlarni tadqiq etish hamda hududlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va xom-ashyosini tayyorlash klasterlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda turli ekstremal sharoitlarda o'stiriladigan dorivor va boshqa foydali o'simlik turlarini introduksiyalashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari asosan o'simliklarni hayotiy moslanish strategiyalarini o'rganish, ontogenez davrilarida kechadigan o'zgarishlarni uning biologik faol moddalarining miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlariga bog'liq ravishda rivojlanishiga qaratilgan keng ko'lamli chuqur ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, eng istiqbolli dorivor o'simliklardan hisoblangan artishok (*Cynara scolymus* L.) navlarini o'rta sho'rlangan hamda qurg'oqchil sharoitlarda o'sish va rivojlanishi, vegetativ organlarining anatomik tuzilishini navlarning ontogeneziga bog'liq holda qiyosiy o'rganish hamda introduksiyalanayotgan hududlarda o'simlikning urug'chiligini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda oshqozon-ichak hamda yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda va profilaktikasida keng foydalaniladigan qimmatbaho introdusent dorivor o'simliklarni sho'rlangan va qurg'oqchil sharoitlarida o'stirish hamda farmasevtika sanoati uchun qimmatli organlarida biologik faol moddalarni to'planish dinamikasini chuqur tadqiq etish orqali farmasevtika sanoati uchun xom-ashyosini yetishtirish va qayta ishlashga katta e'tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> jumladan, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, istiqbolli *Cynara scolymus* L. navlarini Buxoro viloyatining o'rta sho'rlangan tuproqli sharoitlarida bioekologik xususiyatlarini o'rganish, iqlimlashtirish maqsadida urug'larini hududning qurg'oqchil sharoitlarida unuvchanligini aniqlash, ontogenez bosqichlarida navlarning moslanish strategiyalariga bog'liq jihatlarini qiyosiy ochib berish, vegetativ organlarida biologik faol moddalarni to'planish dinamikasini o'rganish orqali farmasevtika sanoatiga tadbiiq etish hamda tadqiqot olib borilgan hududda farmatsevtika klasterini tashkil etish maqsadida artishok

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

navlarini urug'chiligi bazasini yaratish hamda tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 - apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish to'g'risida"gi PQ-4670-son va 2020 yil 26 noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4901-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Artishokning kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari va sabzavot o'simligi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni I.A. Damirov, L.I. Primenko, D.Z. Shukyurov (1982), Yu. Nuraliyev (1988), A.N. Ipatev (1966), R.M. Hammouda et al. (1993), V.K. Lavrenov (2006), A. Cerulli, M. Masullo, C. Pizza, S. Piacente, (2022), R. Rotondo, P.S. Cruz, M. Masin (2022) kabi xorijlik olimlarning tadqiqotlarida ko'rish mumkin.

Respublikamizda introduksiya sharoitida artishokning bioekologik xususiyatlari va kimyoviy tarkibini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Z.B. Nomozova (2012) tomonidan *Cynara scolymus* L. ning sug'oriladigan va sug'orilmaydigan sharoitda vegetativ organlarining anatomik tuzilishida moslanish xususiyatlari, A.A. Abzalov (2013) tomonidan tikanli artishokning mikroelementlarni shimishiga ma'dan va organik o'g'itlarning ta'siri, T.A. Mirraximova, A.N. Yunusxodjayeov (2015) tomonidan artishok barglarining elementlar tarkibi va biologik faol moddalarini miqdori, T.A. Mirraximova (2018) tomonidan tikanli artishokga asoslangan "Cinaron Bio" preparatini standartlashtirish natijalari olingan. M.X. Aramov, B.X. Aliyev (2020) lar tomonidan artishok navlarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. O. Qodirxo'jayev, F.O. Bolikulovlar (2021) tomonidan artishokni yetishtirish bo'yicha uning ozuqaviylik xususiyatlari, navlari va duragaylari to'g'risida tadqiqotlar olib borilgan.

Ilmiy manbalardagi mavjud ma'lumotlar ushbu istiqbolli dorivor artishok navlarini (*Green Gold, Imperial Star, Violetto*) respublikamizning o'rta sho'rlangan hamda qurg'oqchil sharoitlarida bioekologik xususiyatlarini o'rganish orqali dorivor xom-ashyosini tayyorlash hamda urug'chiligi uchun tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bermaydi.

**Tadqiqotlarning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq №SBio-03 "Janubi-G'arbiy O'zbekiston florasining bioxilma-xilligini

o'rganish, innovasion tadqiqotlar o'tkazish va ularni muhofaza qilishning biologik asoslarini aniqlash" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Buxoro viloyati sharoitida artishok (*Cynara scolymus* L.) navlarining bioekologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

artishok navlari urug'larining laboratoriya va dala sharoitida unuvchanligini o'rganish;

Buxoro viloyati sharoitida artishok navlari ontogenezing davr va bosqichlarida rivojlanishini qiyoslash;

artishok navlarining fenologik xususiyatlarini o'rganish;

artishok navlarni vegetativ organlarining anatomik tuzilishini o'rganish asosida moslashish xususiyatlarini aniqlash;

artishok navlarining gullash biologiyasini o'rganish;

artishok navlarining potensial va real urug' mahsuldorligini aniqlash;

artishok navlarining fitokimyoviy tarkibini qiyosiy tahlil qilish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida *Asteraceae* Dumort. oilasiga mansub artishokning *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* artishok navlarining morfologiyasi, anatomiyasi, ontogenezi, fenologiyasi va kimyoviy tahlili tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada laboratoriya va dala tajribalari, fenologik, morfologik, biometrik va statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Buxoro viloyati sharoitida artishok navlarining ontogenezi davr va bosqichlari ochib berilgan;

ilk bor artishok navlari vegetativ organlarining anatomik tuzilishidagi adaptiv moslanishlar qiyosiy asoslangan;

artishok navlarining sutkalik va mavsumiy gullash dinamikasi, urug' mahsuldorligi hamda urug'idan ko'paytirish texnologiyasi asoslangan;

artishok navlari vegetativ organlarining fitokimyoviy tarkibi va miqdoriy ko'rsatkichlari aniqlangan hamda ularni vegetativ organlar bo'ylab taqsimlanishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

artishok navlari urug'larini dala sharoitida optimal unish harorati, ekish muddatlari va ekish chuqurligi aniqlangan hamda o'rta sho'rlangan maydonlarda yetishtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

navlarning barg, poya va ildizi tarkibidagi biologik faol moddalarning organlar bo'ylab miqdoriy ko'rsatkichlari va taqsimlanishini aniqlash orqali farmatsevtika sanoati uchun xom-ashyo tayyorlash imkoniyati ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** artishok navlaridagi tadqiqotlarda qo'llanilgan zamonaviy usullar hamda ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, ilmiy tadqiqot natijalarining yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, hamda davlat amaliy loyihalarini

bajarilishi davomida tan olinganligi, dissertatsiya amaliy natijalarini vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Buxoro viloyati sharoitida artishok *Green Gold*, *Imperial Star*, *Violetto* navlarining o'sishi va rivojlanishi xususiyatlarini ochib berilganligi, ontogenezning davr va bosqichlarida vegetativ va organlarning moslashish xususiyatlari izohlangan, ekstremal sharoitlarga vegetativ organlarining anatomik tuzilishidagi adaptiv moslanish xususiyatlari qiyoslangan hamda biologik faol moddalarining miqdoriy va tarkibiy jihatlari asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarda o'simliklarni ilmiy asoslangan holda ko'paytirishda foydalanish, katta maydondagi plantatsiyalarini barpo etish va farmatsevtika sanoatini xomashyo bilan ta'minlanishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Artishok navlarining (*Green Gold*, *Imperial Star*, *Violetto*) biologiyasi va ekologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

artishok navlari urug'larining laboratoriya, vegetatsion va dala sharoitlarida o'rta sho'rlangan muhitlarda unuvchanligi, optimal ekish chuqurligi, o'sish va rivojlanishi hamda fenologik xususiyatlariga oid ko'rsatmalar aks etgan tavsiyalar Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi "Mirzabadalov" fermer xo'jaligi yerlarida tashkil etilgan 0,20 ga maydonga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi 2023 yil 07-fevral 07/21-21-06/145-son ma'lumotnomasi). Natijada Buxoro viloyatining o'rta sho'rlangan tuproqlari sharoitida artishok navlarini optimal ekish muddatlarini belgilash, parvarishlash, ishlov berish hamda xom-ashyosini yetishtirish imkonini bergan.

Buxoro viloyati sharoitida artishok navlari urug'chiligini tashkil etish va yetishtirish maqsadida fenologik xususiyatlari, gullash biologiyasi va urug' mahsuldorligini baholashga oid ma'lumotlar aks etgan tavsiyalar Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi "Mirzabadalov" fermer xo'jaligiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi 2023 yil 07-fevral 07/21-21-06/145-son ma'lumotnomasi). Natijada artishok navlarini urug' mahsuldorligi koeffitsiyentini aniqlash, vegetatsiyaning birinchi yilidan dastlabki urug'ini olish hamda vegetatsiyaning 2-yilidan urug' mahsuldorligi 15-20% ga oshish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop qilishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Artishok turlarini bioekologik xususiyatlarini o'rganishga oid tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida artishok O'zbekiston uchun noan'anaviy bo'lgan istiqbolli qimmatbaho o'simlik bo'lib, undan yashil holida silos, senaj va quruq yem-xashak sifatida foydalaniladi, hamda oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati uchun xom-ashyo va chorvachilik uchun ozuqa sifatida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda tikanli artishokni sanoat miqyosida ishlab chiqarishga jalb qilishda O'zbekistonda ham bir qancha olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dissertatsiyaning **”Buxoro viloyatining tabiiy geografik xususiyatlari, tadqiqot obyekti va metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib borilgan hududning sharoitlari, tadqiqot obyekti va uslublari keltirilgan. Buxoro viloyati o'zining geografik joylashish o'rniga ko'ra, Turon subtropik iqlim mintaqasining Markaziy Osiyo quruq kontinental iqlim provinsiyasiga kiradi va yarim cho'l mintaqasiga mansub o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Urug'larning laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi T.A.Rabotnov (1960), M.G.Nikolayeva (1985) va M.K.Firsova (1959) uslublaridan foydalanildi. O'simliklarning ontogenezini o'rganishda L.A.Jukova (1988), Ye.L.Nuximovskiy (1976) tavsiya etgan uslublardan foydalanildi. O'simliklarning fenologiyasini o'rganishda I.N.Beydeman (1960) va G.E.Shuls (1966) uslublari yordamida olib borildi. Bunda o'simlik vegetatsiyasining boshlanishi, g'unchalash, gullash, mevalash fazalarining muddatlari aniqlandi. Anatomik kesmalar K.Esau (1969), N.S.Kiseleva (1971), S.F.Zaxarevich (1954) uslublari asosida tavsiflandi. O'simlikning gullash biologiyasi A.N. Ponomarev (1960), urug' mahsuldorligi O.A.Ashurmetov (1982), O.A.Ashurmetov, X.Q.Qarshiboyev (2008) uslublari asosida bajarildi. Tadqiqotlar davomida olingan natijalar statistik tahlil qilindi (Excel 2013).

Dissertatsiyaning **“Artishok navlarining botanik tavsifi, urug'larining o'rta sho'rlanish sharoitlaridagi unish xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobda artishok navlarining urug'larini laboratoriyada turli harorat va o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda unuvchanligini o'rganishga bag'ishlangan.

*Green Gold, Imperial Star* va *Violetto* navlarining bo'yi 0,5-2 m keladigan ko'p yillik o't. Poyasi yo'g'on, tik, tukli, kulrang yoki oqimtir, yuzasi biroz qobirg'achali. To'pbarglari yirik, ostki tomoni qalin oqish tuk bilan qoplangan; poyaning pastki qismidagi barglari cho'ziq yoki keng nashtarsimon, ikki karra patsimon qirqilgan, uzunligi 1 metrgacha, eni 50 sm atrofida. Poyaning o'rta va

yuqori qismidagi barglari maydaroq, o'troq. Savatchalari yirik, *Green Gold* navida diametri 32-46 sm, *Imperial Star* navida 30-38 sm, *Violetto* navida 28-33 sm shoxlangan poyalari uchida bittadan o'rnashgan; qoplag'ichi tuxumsimon yoki deyarli sharsimon; bargchalari deyarli tuksiz, silliq, dag'al, asos qismi etli, eng sirtqilarining uchi biroz orqaga egik yoki qayrilgan. Gullari juda ko'p, gultojisi ko'kintir – siyoh rangda.

Artishok navlarining urug'lari laboratoriya sharoitida +10°C haroratda 6-kunlarida unib chiqib boshlaydi. Tajribaning 11-kunida barcha urug'lar unib bo'ldi. Harorat ko'tarilgan sari urug'larning unishi tezlashdi, ya'ni +15+20°C da 4-kunda, +25+30°C da 3-kunda +35°C da 4-kunda. Harorat +15+20°C bo'lganda to'rt, besh kunda 61,3-78,3 %, +25+30°C da esa besh kunda 85,1-90,3% urug'lar unib chiqdi. Harorat yanada yuqori ko'tarilgan sari urug'larning unish qobiliyati pasayib boradi, ya'ni +35°C da 54% urug'lar undi. Demak, urug'larning laboratoriya sharoitida unishi harorat +10°C bo'lgandan boshlab harorat ko'tarilgan sari (+20°C dan 30°C) esa ularning unish qobiliyati oshib boradi.

Urug'larni qaysi faslda ekilishidan qat'iy nazar, unib chiqishi navlarda bir-biridan katta farq qilmadi. Oktyabr oyida ekilgan urug'larning unib chiqishi *Green Gold* navida 75,2 %, *Imperial Star* navida 77,5 % va *Violetto* navida esa 76,1 % ni tashkil etdi. Kuzda (oktabr, noyabr) havo haroratining birmuncha pasayishi va tuproq qatlamlarida sho'rlanish miqdori ortib borishi, bahorda (mart) ekilgan urug'larga nisbatan biroz kam (10-13 %) unuvchanlikka ega bo'ldi. Tajriba natijasiga ko'ra, artishok navlari urug'larini mart oyida ekish eng qulay vaqt bo'lib, unib chiqish darajasi *Green Gold* navida 84,7 %, *Imperial Star* navida 88,2%, *Violetto* navida esa 89,5 % ni tashkil etdi.

Artishok navlari urug'larining unib chiqishi uchun 3-4 sm chuqurliklar qo'lay bo'lib, *Green Gold* navida 81,6-84,2 %, *Imperial Star* navida 80,4-88,4 % va *Violetto* navida 82,7-89,3% urug'lar unib chiqdi. Chunki shu chuqurliklardagi sho'rlanish miqdori, namlik va harorat urug'larning unib chiqishi uchun yetarli bo'ldi. Undan chuqurroqqa ekilgan urug'larning o'rta sho'rlangan tuproq qatlamlarida unib chiqishi sekinlasha boshladi. 5 sm dan keyingi tuproq qatlamlarida sho'rlanish miqdori ortib borishi, urug'larning unuvchanligiga salbiy ta'sir etgan. Bu xususiyat navlar kesimida ham deyarli bir xil ko'rsatkichni namoyon etdi. *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlarida ham kuzda (oktabr) ekilgan urug'lar 7-8 kunda, bahorda (mart) esa 4-6 kundan so'ng unib chiqib boshlaydi.

Dissertatsiyaning “**Artishok navlarining morfogenezi va strukturaviy xususiyatlari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida artishok navlarining o'sish sharoitiga ko'ra qiyosiy tahlili (ontogenez), fenologiyasi va morfologik organlarining anatomik tuzilishi o'rganilgan.

**Virginil davri (v). Maysa bosqichi (p).** Artishok navlari urug'larining unishi yer ustki (epigeal) bo'lib, unishi asosiy ildizchanning paydo bo'lishidan boshlanadi. Asosiy ildizcha 5-6 sm chuqurlikka yetganda gipokotil urug'palla barglarni yer ustiga olib chiqadi. *Green Gold* va *Violetto* navlariga nisbatan *Imperial Star* navi urug'palla barglarining hayotchanligi 6-7 kun uzoq davom etdi.

**Yuvenil bosqichi (j).** Bu bosqichda artishok navlarining yer ustki va yer ostki organlarida morfologik o'zgarishlar yuz beradi. Yuvenil, immatur va voyaga yetgan vegetativ bosqichlari bir-biridan barg plastinkasining qirqilganlik darajasini murakkablashuvi bilan farq qiladi. Yuvenil bosqichida artishok navlarida 6-9 tagacha barglar hosil qilib, barg plastinkasining chetlari chuqurroq tishsimon qirqilgan bo'ladi. Har bir tishchaning uchida tikanchalar paydo bo'ladi. Epikotil rivojlanmaydi, yuvenil bosqichi to'pbarglar holatida bo'ladi. Yuvenil bosqichi *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlarida 30-35 kun davom etadi.


**Immatur bosqich (im).** Bu bosqich davomida artishok navlarida 20-24 dona barglar hosil qiladi. Barg plastinkasi 10-12 bo'lakkacha qirqiladi, bunda qirqilganlik darajasi bargning asosiy tomirigacha yetib boradi. Immatur bosqichi *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlarida 35-40 kungacha davom etadi.

**Voyaga yetgan virginil bosqich (v).** Bu bosqichda artishok navlarining barglarini soni 40-42 donani tashkil etadi. Artishok navlarining barg plastinkalari turli shakllarda qirqilgan, ya'ni 18-22 tagacha bo'laklarga bo'linadi. Barglarning asosidagi bo'lakchalarning uzunligi 5-6 sm, o'rtasidagilari 21-25 sm, uchki qismida 10-12 sm ega bo'ladi. Voyaga yetgan vegetativ bosqich 310-370 kun davom etadi.

**Generativ davr (g).** Artishok navlarining generativ davri yosh generativ, voyaga yetgan generativ va qari generativ bosqichlariga bo'linadi. Yosh generativ bosqich ( $g^1$ )-artishok navlarining ikkinchi vegetasiya yilida kaudeksidagi 4-6 ta kurtaklardan generativ novdalar shakllanadi. Asosiy generativ novda ortotrop holatda o'sib, birinchi bo'g'imlar oralig'i juda qisqa bo'lganligidan, to'pbarglarni hosil qiladi. O'rta sho'rlangan tuproqlar sharoitida o'stirilgan o'simliklarda generativ davri birmuncha oldin boshlanishi kuzatiladi. Shunga asosan, aprel oyining ikkinchi o'n kunligida asosiy poya tezroq o'sadi. *Green Gold* navida asosiy poyaning uzunligi 29-32 sm ga, *Imperial Star* navida 30-35 sm, *Violetto* navida esa 28-31 sm gacha yetadi. Asosiy poyaning yuqorigi yarusidagi barg qo'ltiqlaridan I-II-III – tartibli yon novdalar ketma-ket rivojlanadi. Asosiy poya va yon novdalarning har biri savatcha to'pguli bilan tugaydi. To'pgullarda gullar akropetal tarzda ochila boshlaydi.

**Voyaga yetgan generativ bosqishi ( $g^2$ )** da asosiy poyaning qurishi kuzatiladi. Buning natijasida ildizning asos qismi yo'g'onlashib, kaudeksdagi kurtaklardan ko'plab generativ novdalar yuzaga keladi. Artishok navlarining kaudeksida 15-20 tagacha kurtaklar hosil bo'ladi, biroq bu kurtaklarning barchasi rivojlanmaydi ba'zilar ko'pincha tinim holida qoladi. Bu bosqichda may oyining uchinchi dekadasiga kelib, *Green Gold* navining balandligi 145 sm, *Imperial Star* 160 sm va *Violetto* 140 sm ni tashkil etadi. Artishokning *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlarida faqat voyaga yetgan generativ bosqishigacha o'rganildi, biroq to'rt yillik o'simliklarda hali qari generativ bosqichi va senil davrlari kuzatilmadi. Artishok navlarining vegetatsiyasi yil bo'yi davom etadi. Navlar kesimida fenologik fazalarning muddati va davomiyligi o'sish sharoitiga bog'liq. Artishok navlarining fenologik fazalari 2020-2022 yillarda olib borilgan kuzatishlar asosida aniqlandi. *Green Gold* artishok navining fenologiyasi 1-rasmda

o'z aksini topgan. 2021 yilda vegetatsiyaning boshlanishi fazasi 2020-2022 yillarga nisbatan biroz (3-8 kun) ertaroq boshlanishi bilan farqlanadi.




**1-rasm. Green Gold artishok navining fenospektri (2020-2022 yillar)**

2020 yilda 20-fevral, 2021 yilda 12-fevral, 2022 yilda 15-fevralda boshlanishi o'rganildi. Buxoro viloyatining o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida o'stirilgan artishokning *Violetto* navida *Green Gold* va *Imperial Star* navlariga qaraganda, fenologik fazalarning (g'unchalash, gullash va mevalash) davomiyligi qisqa bo'ladi. Bu esa urug'larni birmuncha tezroq yig'ishtirib olishga imkon beradi va kaudeksdagi kurtakdan barglarning paydo bo'lishini tezlashtiradi. Artishok navlarining fenologik fazalaridagi muhim ko'rsatkichlardan biri, poya va barglarining qalin tukchalar bilan qoplangan. Savatcha to'pgulini tashqi tomondan o'rab turgan o'rama bargchalarning uchki qismi qayrilib, qattiq tikanlar hosil qilishi, dastlabki haqiqiy barglarning yaxlit, butun bo'lishi, keyinchalik barg plastinkasining qirqilganlik darajasining murakkablashuvi, uchki qismlari tikanchalar hosil qilishi bilan xarakterlanadi.

*Green Gold* navi bargining paradermal kesigida adaksial (ustki) epiderma hujayralarining devori to'g'ri chiziqli, abaksial (ostki) epiderma hujayralarining devori esa to'liqinsimon bo'lib, proyeksiyasi ko'p qirralidir. Adaksial (ustki) epiderma hujayralari abaksial (ostki) epiderma hujayralaridan birmuncha farqlanadi. *Imperial Star* naviga nisbatan *Green Gold* navi barg mezofilining qalinroqligi ( $255,56 \pm 26,15$  mkm) aniqlandi. Dorsiventral tipli barg mezofilida ustunsimon hujayralarning bargning adaksial (ustki) tomonida, g'ovaksimon hujayralar esa bargning abaksial (ostki) tomonida joylashgan (2-rasm). Epiderma hujayrasi yumaloq-ovalsimon shaklga ega bo'lib, bir qator yupqa devorli

hujayralardan tashkil topgan. Adaksial (ustki) epiderma hujayralari abaksial (ostki) epiderma hujayralariga nisbatan yirikroqdir. Adaksial va abaksial epiderma hujayralarida ko'p sonli bir hujayrali va ko'p hujayrali oddiy trixomalar, ko'p hujayrali bezsimon trixomalar joylashgan.

*Imperial Star* barg mezofili dorsiventral tipli tuzilishga ega bo'lib, *Green Gold* va *Violetto* navlariga nisbatan barg mezofili qalinligi kichikroq  $229,17 \pm 22,12$  mkm ekanligi aniqlandi. Ustunsimon hujayralarning bargning adaksial (ustki) tomonida, g'ovaksimon hujayralar esa bargning abaksial (ostki) tomonida joylashgan. Epiderma hujayrasi yumaloq-ovalsimon shaklga ega bo'lib, bir qator yupqa devorli hujayralardan tashkil topgan. Adaksial (ustki) epiderma hujayralari abaksial (ostki) epiderma hujayralariga nisbatan yirikroqdir. Adaksial va abaksial epiderma hujayralarida ko'p sonli bir hujayrali va ko'p hujayrali oddiy trixomalar, ko'p hujayrali bezsimon trixomalar joylashgan. Bargning adaksial va abaksial epiderma hujayralarining orasida assimilyatsiyalovchi to'qima joylashgan bo'lib, ustunsimon va g'ovaksimon hujayralardan iborat. Ustunsimon parenxima hujayralari xlorofill donachalariga ega, bir-biriga zich joylashgan uch qator hujayralardan iborat. Asosiy tomir bargning abaksial (ostki) tomoniga qarab bo'rtib chiqqan bo'lib, barg mezofilining markaziy qismida joylashgan. Epiderma hujayrasi bir qator yupqa devorli hujayradan iborat bo'lib, abaksial epiderma hujayralarida ko'p sonli bir hujayrali va ko'p hujayrali oddiy trixomalar, ko'p hujayrali bezsimon trixomalar joylashgan. Bargning abaksial (ostki) epiderma hujayrasining ostida 5-6 qator burchaksimon kollenxima joylashgan. *Violetto* navi bargining paradermal kesigida adaksial (ustki) va abaksial (ostki) epiderma hujayralarining devori to'g'ri chiziqli, proyeksiyasi ko'p qirralidir. Adaksial va abaksial hujayralarida ko'p sonli bir hujayrali va ko'p hujayrali trixomalar hamda ko'p hujayrali bezsimon, sharsimon trixomalar mavjud (1-jadval). Epiderma bir qator yumaloqsimon shakldagi hujayralardan iborat bo'lib, *Imperial Star* va *Violetto* navlariga nisbatan yirikroqligi ( $33,3 \pm 0,35$  mkm) aniqlandi. Epiderma hujayralarining ostida bir qator yumaloq shakldagi yupqa devorli yirik diametrga  $66,67 \pm 0,71$  mkm ga ega bo'lgan subepiderma – gipoderma joylashgan. Artishok navlari poyasining anatomik tuzilishi ko'ndalang kesikda yumaloq-qovurg'asimon shaklda bo'lib, parenxim-bog'lamsimon tipliligi aniqlandi. *Imperial Star* navi ko'ndalang kesikda yumaloq-qovurg'asimon shaklda bo'lib, parenxim-bog'lamsimon tipliligi aniqlandi. Epiderma bir qator yumaloqsimon shakldagi hujayralardan iborat bo'lib, *Green Gold* navi nisbatan kichikroqligi ( $14,28 \pm 0,17$  mkm) aniqlandi. *Violetto* navi poyasining ko'ndalang kesikda yumaloq-qovurg'asimon shaklda bo'lib, parenxim-bog'lamsimon tipliligi aniqlandi. Epiderma bir qator yumaloqsimon shakldagi hujayralardan iborat bo'lib, *Green Gold* navi nisbatan kichikroqligi ( $13,33 \pm 0,09$  mkm) aniqlandi. Epiderma hujayralarining ostida bir qator yumaloq shakldagi yupqa devorli kichik diametrli ( $20,12 \pm 0,21$  mkm) hujayralardan iborat bo'lgan gipoderma joylashgan. Poyaning qovurg'asimon qismlari o'rganilgan navlarga nisbatan sustroq rivojlangan bo'lib, gipoderma hujayrasining ostida 12-14 qator burchaksimon tipli kollenxima hujayralari va 1-2 ta o'tkazuvchi bog'lamlar joylashgan.



**2 – rasm. Green Gold navi barg mezofillining anatomik tuzilishi:**

a – barg asosiy tomirining umumiy ko‘rinishi; b – detal barg mezofilli; d – epiderma va kollennixima; e – epiderma va barg og‘izcha; f – o‘tkazuvchi bog‘lam; g– epiderma va g‘ovaksimon hujayralar; h – parenxima va gidrosit hujayralar; i – epiderma va bezsimon trixoma.

**Shartli belgilar:** BO – barg og‘izchalari, Bt – bezsimon trixoma, Gh – gidrosit hujayralar, KL – kollennixima, Ks – ksilema, Px – parenxima hujayralari, Uh – ustunsimon hujayra, F – floema, Hb – hujayralararo bo‘shliq, E – epiderma, O‘B – o‘tkazuvchi bog‘lam, G‘P – g‘ovaksimon hujayra.

**1-jadval**

**Artishok navlari bargi anatomik belgilarining miqdoriy ko'rsatkichlari  
(n=30)**

Belgilarning ko'rsatkichlari		<i>Green Gold</i>	<i>Imperial Star</i>	<i>Violetto</i>
Barg: uzunligi, sm		17,4±1,02	15,2±0,9	14,1±0,9
eni, sm		5,8±0,07	4,9±0,06	4,8±0,04
mezofillining qalinligi, mkm		255,56±26,15	229,17±22,12	311,11±32,28
Epiderma: tashqi devori kutikulaning qalinligi, mkm	adaksial	2,85±0,02	7,51±0,08	12,51±0,09
	abaksial	2,94±0,03	2,91±0,02	3,13±0,04
Epiderma hujayrasining balandligi, mkm	adaksial	28,57±0,31	32,5±0,34	40,51±0,37
	abaksial	16,18±0,23	11,76±0,09	16,63±0,21
1 mm <sup>2</sup> epidermada barg og'izchalari-ning soni	adaksial	198,41±2,43	334,83±3,47	210,84±2,11
	abaksial	570,43±5,63	669,64±7,51	223,21±2,31
Barg og'izchasining uzunligi, mkm	adaksial	27,78±0,31	32,14±0,35	37,04±0,47
	abaksial	27,27±0,24	18,42±0,21	34,62±0,41
Barg og'izchasining eni, mkm	adaksial	22,22±0,24	25,11±0,26	29,63±0,33
	abaksial	21,63±0,17	15,79±0,09	30,77±0,30
Barg og'izchasining epiderma hujayrasida chuqur joylashganligi, mkm		5,71±0,04	10,12±0,09	–
Ustunsimon hujayra, mkm				
balandligi:		55,56±0,57	41,67±0,45	50,13±0,51
eni:		13,89±0,09	10,41±0,08	13,8±0,15
palisadlik indeksi:		4	4	3,6
qatorlarining soni:		3	3	3
G'ovaksimon hujayra, mkm				
diametr:		18,38±0,08	14,71±0,11	21,88±0,24
qatorlarining soni:		5-6	4-5	4-5
Bargning asosiy tomirdagi o'tkazuvchi bog'lamlarning soni:		7	8	8
O'tkazuvchi bog'lamdagi ksilemaning diametri, mkm:		42,86±0,47	60,11±0,57	87,5±0,91
Parenxima hujayrasining diametri, mkm:		67,86±0,71	35,13±0,37	44,26±0,53
Kollennxima hujayra qatorlarining soni:		4-5	5-6	2-3


Buxoro viloyati sharoitida o'stirilgan artishokning *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlari anatomik tuzilishi natijalariga ko'ra, mazkur navlarni assimilyatsiyalovchi va o'q organlarini o'rganish asosida diagnostik belgilari aniqlandi. Shuningdek, biologik faol moddalarning lokalizatsiyasini barg, barg

bandi va poyalarda ichki ajratuvchi to‘qimaning mavjud emasligi, balki bir hujayrali va ko‘p hujayrali oddiy trixomalar, yumaloq boshdan iborat bezsimon trixomalar va efir moyli trixomalarning mavjudligi hisobiga biologik faol moddalar ajralishi aniqlandi. Lekin ildizning anatomik tuzilishini o‘rganish asosida biologik faol moddalarning lokalizatsiyasi sxizogen tipli ichki ajratuvchi to‘qimaning mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek, vegetativ organlardagi anatomik belgilarni qiyosiy tahlil qilish asosida *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlarining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar sharoitlariga xos bo‘lgan strukturaviy va adaptiv belgilari aniqlandi. *Green Gold* va *Violetto* navlarining assimiatsiyalovchi va o‘q organlarda mezo-kseromorf belgilarning ustunlik qilishi, *Imperial Star* navida esa – kseromorf belgilarining ustunlik qilishi aniqlandi va o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar sharoitiga yaxshi moslashganligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning “**Artishok navlarining antekologiyasi va urug‘ mahsuldorligi**” deb nomlangan beshinchi bobida artishok navlari to‘pgullarining morfologiyasi, sutkalik va mavsumiy gullash jarayonlari hamda urug‘ mahsuldorligi o‘rganilgan.

O‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitlarida o‘stirilgan artishokning *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlarini sutkalik gullash dinamikasi o‘rganildi. Unga ko‘ra, artishok navlari gullarining ochilish dinamikasida keskin farq yo‘qligi kuzatildi. Tajriba maydonidagi artishokni *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlari gullarining ochilishini boshlanishi bir-biridan 2-3 kunga farq qilishi kuzatildi (3-rasm).



**3-rasm. Artishok navlari gullarining sutka davomida ochilishi**

Artishokning *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlari asosan vegetatsiyasining ikkinchi yilida gullaydi. Artishok navlarining kuzda ekilgan urug'lardan unib chiqqan 10-15 % gacha o'simliklarda birinchi yildayoq generativ organlarni hosil qilganligini ko'rish mumkin. Generativ organlar hosil qilgan o'simliklarning balandligi 30-40 sm ni tashkil etdi.

Tajribalarimizga ko'ra, gullarning ochilishi asosan ertalab boshlanadi. Ko'p miqdordagi gullar asosan soat 8<sup>00</sup> dan 11<sup>00</sup> gacha bo'lgan vaqtda ochiladi va soat 11<sup>00</sup> dan 12<sup>00</sup> gacha deyarli bir xil sondagi gullar ochilishi kuzatiladi. Keyin ochilgan gullarning soni kamaya boshlaydi va soat 20<sup>00</sup> da tamoman to'xtaydi. Artishok navlari gullarining mavsumiy ochilishini kuzatganimizda, bu jarayon ancha qisqarishi, ya'ni *Green Gold* navida 18 mayda boshlanib 30-32 kun, *Imperial Star* navida 20 mayda boshlanib 29-30 kun, *Violetto* navida 19 mayda boshlanib 27-28 kun davom etdi. Artishok navlarining g'unchalash fazasida har bir tup o'simlikda 30-35 donagacha savatchalar hosil bo'ladi. Savatchalardagi gullar ham birin-ketin ochila boshlaydi va shunday qilib iyun oyining ikkinchi dekadasigacha yakka-yakka gullar ochilishi kuzatiladi. Kuzatishlar ko'rsatishicha, bir gulning ochilishi 2-3 kun, bir savatchadagi gullarning ochilishi 5-6 kun, bir tup o'simlikda 12-15 kun, plantasiyadagi barcha o'simliklar bir vaqtda ochilmasdan birin – ketin amalga oshadi. Shu boisdan, artishok navlarining gullarini mavsumiy ochilishi 28-32 kun davom etadi. Buxoro viloyatining o'rtacha sho'rlangan tuproqlar sharoitida o'stirilgan artishokning *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlari gullarining sutka davomida ochilish jarayonidagi gullarning ochilishini boshlanishi, yalpi gullash va gullashning tugashi kabi ko'rsatkichlar navlar kesimida bir-biridan hamda Samarqand viloyati sharoitida o'stirilgan o'simliklardan deyarli farq qilmadi. Biroq, mavsumiy gullash jarayoni Samarqand viloyati sharoitida o'stirilgan o'simliklarga qaraganda, havo haroratining issiq va quruq bo'lishi, tuproqning o'rtacha sho'rlanganligi o'simliklardagi gullash jarayonlarini jadallashishiga sabab bo'lganligi bilan izohlandi. Buxoro viloyatining o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida artishokning *Violetto* navining mavsumiy gullash davomiyligi boshqa navlardan ustunlik qilishi aniqlandi.


Tadqiqotlarimiz davomida olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, artishok navlarining savatchalardagi gullar va urug'lar soni urug' mahsuldorligi o'rganilgan barcha navlarida to'g'ri proporsional ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu xususiyatlar navlar kesimida turli ko'rsatkichlarni namoyon etdi (4-rasm).

Dissertatsiyaning “**Artishok navlari vegetativ organlarining fitokimyoviy tahlili**” deb nomlangan oltinchi bobda poya-bargning va ildizning fitokimyoviy tahlili, flavonoidlarning miqdoriy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Artishok navlarining tarkibidagi azot va umumiy oqsillar miqdori tahlil qilindi. *Imperial Star* navining poya – bargini tarkibida azot miqdori (1,17 %), umumiy oqsillar miqdori (6,12 %) yuqori bo'lishligi aniqlandi. *Green Gold* va *Violetto* navlarining poya – bargini tarkibida azot miqdori (0,95-0,96 %), umumiy oqsillar miqdori (5,99-6,02 %) kam miqdorda to'planadi.

Artishok navlarining flavonoidlar tarkibi (rutin, kversitin, digidrokversitin, gall kislota) tahlil qilindi. Flavonoidlar tahliliga ko'ra, *Imperial Star* navining poya-bargini tarkibida rutin (8,42 mg/gr), digidrokversitin (10,14 mg/gr) miqdori

yuqori bo'lishi aniqlandi. *Green Gold* va *Violetto* navlarining poya – bargini tarkibida rutin (7,58-6,89 mg/gr), digidrokversitin (9,93-8,16 mg/gr) miqdori kam bo'lishligi tahlil natijalariga ko'ra aniqlandi. *Violetto* navining poya-bargi tarkibida



#### 4-rasm. Artishok navlarining urug' mahsuldorligi

a - *Green Gold*, b – *Violetto* v - *Imperial Star*

kversitin miqdori (6,74 mg/gr) yuqori, *Green Gold* va *Imperial Star* navlarida kversitin miqdori (4,03-4,41 mg/gr) birmuncha kam bo'lishi tahlil qilindi. *Violetto* navining poya-bargi tarkibida gall kislota 2,10 mg/gr miqdorda bo'lishi aniqlandi, biroq *Green Gold* va *Imperial Star* navlarida esa gall kislota to'planmasligi ma'lum bo'ldi (2-jadval).

Shuningdek, artishok navlarining tarkibidagi mikro-makroelementlarning miqdori mass-spektrometrik usulda aniqlandi va tahlil qilindi. *Imperial Star* navining poya-barg tarkibida mis (0,80 mg/kg) temir (257,2 mg/kg) marganes (2,96 mg/kg) ko'p, rux (5,71 mg/kg) kam miqdorda to'planadi. *Green Gold* va *Violetto* navlarining poya-bargi tarkibida rux (6,14-8,33 mg/kg) ko'p, mis (0,65-0,57 mg/kg) temir (247,0-247,4 mg/kg) marganes (2,61-2,73 mg/kg) kam miqdorda bo'ladi. *Imperial Star* navining poya-bargi tarkibida kalsiy (4984,6

mg/kg), magniy (486,4 mg/kg), kaliy (6464,8 mg/kg), natriy (2377,3 mg/kg) ko‘p, fosfor (475,6 mg/kg), oltingugurt (239,5 mg/kg) kam miqdorda to‘planadi. *Imperial Star* naviga nisbatan *Green Gold* va *Violetto* navlarining poya-bargi tarkibida kalsiy (4186,0-4873,5 mg/kg), magniy (395,7-419,4 mg/kg), kaliy (5432,7-5925,4 mg/kg), natriy (1995,4-1785,8 mg/kg) kam miqdorda bo‘ladi. *Violetto* navida fosfor (518,1 mg/kg), oltingugurt (260,5 mg/kg) ko‘p miqdorda to‘planadi. Aksincha, *Green Gold* va *Imperial Star* navlarida fosfor (458,4-475,6 mg/kg), oltingugurt (202,1-239,5 mg/kg) kam bo‘lishi kuzatildi.

## 2-jadval

### Artishok navlari vegetativ organlarining flavonoidlar tarkibi

Namunalar	Konsentrasiya mg/gr			
	Rutin	Kversitin	Digidro-kversitin	Gall kislota
<i>Green Gold</i>				
Poya-barg	7,58	4,03	9,93	0
Ildiz	0,75	0,36	1,2	0
<i>Imperial Star</i>				
Poya-barg	8,42	4,41	10,14	0
Ildiz	0,32	0,83	0	0,50
<i>Violetto</i>				
Poya-barg	6,89	6,74	8,16	2,10
Ildiz	0,31	0,76	0	0,51

Buxoro viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida o‘stirilgan artishokning *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlari vegetativ organlarining fitokimyoviy tahlil natijalariga ko‘ra, mazkur navlar tarkibidagi organik moddalar va mikroelementlar miqdori bu o‘simliklardan farmasevtika sanoatida xomashyo sifatida foydalanish imkonini beradi.

## XULOSALAR

1. Laboratoriya sharoitida NaCl ning 1%, 2% li eritmalarida artishok navlari urug‘larining unuvchanligi +10 dan +35°C gacha haroratlarda undi. Urug‘larning unib chiqishi uchun optimal harorat +25-30°C bo‘lib, 4-5 kunda artishokning *Imperial Star* va *Violetto* navlarida 88-92%, *Green Gold* navida esa 85-90% ni tashkil qildi. Dala sharoitida urug‘larning unuvchanligi 3-4 sm chuqurlikda ekilganda *Green Gold* 81-84%, *Imperial Star* 80-88% va *Violetto* navida 82-89 %, optimal ekish muddatlari oktyabr, mart oylari hisoblanadi.

2. Buxoro viloyati sharoitida o‘stirilgan artishok navlarining ontogenez davr va bosqichlari jadal o‘tdi va davomiyligi qisqardi. Virginil davri 14-16 oy davom etishi kuzatildi. Maysa, yuvenil, immatur va voyaga yetgan virginil bosqichlari bir-biridan barglarining qirg‘ilganlik darajasining murakkablashuvi bilan farq qildi.

3. Artishokning *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlari fenologik fazalarining erta boshlanishi va davomiyligining qisqa bo‘lishi kuzatildi. O‘simliklar poya va barglarining sertukligi, to‘pgulini tashqi tomondan o‘rab turgan o‘rama

bargchalar va barg plastinkasining qirqilgan bo‘lakchalarining uchki qismi tikanchalar bilan qoplandi.

4. Buxoro viloyati sharoitida o‘stirilgan artishok navlari vegetativ organlarining anatomik tuzilishida kseromorf va mezokseromorf belgilar paydo bo‘ldi, ya’ni barg epidermasi hujayralarining o‘lchami kichraydi, og‘izchalar soni ko‘paydi, poyaning po‘stloq parenximasi qalinlashdi, o‘tkazuvchi naylarning diametri va soni ortdi, yog‘ochlanishi kuchaydi.

5. Artishok navlarini gullash fazasining boshlanishi va gullash davomiyligi (2-5 kun) bir-biridan keskin farq qilmaydi. Gullarning sutka davomida ochilishi soat 6<sup>00</sup> dan 20<sup>00</sup> gacha davom etdi, eng ko‘p ochilishi 8<sup>00</sup>–11<sup>00</sup> ga to‘g‘ri keldi, bunda havo harorati +29+35°C va havoning nisbiy namligi 50-55% ni tashkil etadi.

6. Buxoro viloyati sharoitida artishokning barcha navlari gullab, urug‘ berdi. *Imperial Star* navi urug‘ mahsuldorligi jihatidan boshqa navlardan ustunligini namoyon etdi. Artishok navlarning urug‘chiligini tashkil etish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ekish uchun o‘simlikning birinchi va ikkinchi tartib to‘pgullardan olingan urug‘lardan foydalanish tavsiya etiladi.

7. Buxoro viloyati sharoitida o‘stirilgan artishok *Green Gold*, *Imperial Star* va *Violetto* navlari tarkibida aniqlangan organik va mineral moddalarning tarkibiy hamda miqdoriy ko‘rsatkichlari o‘simlikning vegetativ organlaridan farmasevtika sanoatida xomashyo sifatida foydalanish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ  
ШАРОФА РАШИДОВА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**ИСОМОВ ЭЛДОР ЭРХОНОВИЧ**

**БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОРТОВ АРТИШОКА  
(*CYNARA SCOLYMUS L.*) В УСЛОВИЯХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ**

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при При Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/B910.**

Диссертационная работа выполнена в Самаркандском Государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Номозова Зебуннисо Бахроновна</b> кандидат биологических наук, доцент
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Хайдаров Хислат Кудратович</b> доктор биологических наук, профессор <b>Дусчанова Гулжан Мадримбаевна</b> доктор биологических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Бухарский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится 10 августа 2023 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.02.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал факультета биологии Самаркандского государственного университета. Тел.: (+99866) 239-11-40; факс (+99866) 239-11-51; E-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирован за № 98). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, Центр информационных ресурсов. Тел.: (+99866) 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан 27 июля 2023 года.  
(Реестр протокола рассылки № 2 от 27 июля 2023 года)

**Т.Ф.Ражабов**  
Председатель научного совета  
по присуждению учёных степеней, д.б.н

**М.С.Кузиев**  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
(PhD), доцент

**Х.К.Хайдаров**  
Председатель научного семинара при научном  
совете по присуждению учёных степеней,  
д.б.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире возрастает спрос на выращивание лекарственных растений, которые добавляют в фитопрепараты, применяемые при лечении, а также профилактике заболеваний пищеварительной системы. В последние годы возникает необходимость развития фармацевтической промышленности путем подготовки сырья из лекарственных растений, обладающих данными признаками, которые редко используются в сельском хозяйстве или в экстремальных условиях. В связи с этим, интродукция не характерных для нашей флоры лекарственных и других полезных видов растений в засоленных почвах и экстремальных условиях, исследование биологических адаптационных механизмов, а также выращивание, переработка и организация кластеров подготовки сырья лекарственных растений в регионах имеет важное значение.

В мире проводятся масштабные глубокие научные исследования, направленные на интродукцию лекарственных и других полезных видов растений, выращиваемых в различных экстремальных условиях, которые в свою очередь основаны на изучении стратегии жизненного приспособления растений, развитие изменений, происходящих в период онтогенеза, в зависимости от количественных и качественных показателей его биологически активных веществ. В связи с этим особое внимание направлено на сравнительное изучение сортов артишока (*Cynara scolymus* L.), являющегося одним из наиболее перспективных лекарственных растений, их росту и развитию, анатомическому строению вегетативных органов в средnezасоленных и засушливых климатических условиях в зависимости от периодов онтогенеза, а также на организацию семеноводства растения в районах его интродукции.

В нашей республике уделяется большое внимание и достигаются определенные результаты по выращиванию и переработке сырья для фармацевтической промышленности путем выращивания в засоленных и засушливых условиях ценных интродуцентов лекарственных растений, широко применяемых в лечении и профилактике желудочно-кишечных и сердечно-сосудистых заболеваний и углубленное изучение динамики накопления биологически активных веществ в их ценных органах. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие задачи как «Защита экологии и окружающей среды, улучшение экологического состояния городов и районов, реализация общенационального проекта «Яшил макон»<sup>2</sup>. Исходя из этих задач, изучение биоэкологических особенностей перспективных сортов *Cynara scolymus* L. в средnezасоленных почвенных условиях Бухарской области, определение

---

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

